



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:10-11-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 23701

Obyekt nomi «Namangan shahridagi “Yangiariq” kanalining PK71+51 dan PK85+52 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish»

Buyurtmachi - “NAMANGANSUVQURILISH INVEST” davlat muassasasi

Bosh loyihachi - “KELAJAK-S” xususiy korxonasi

Litsenziya AL-000800 9.06.2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Byudjet

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 22670

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5084-sonli qarori.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 apreldagi 202-F-sonli farmoyishi.

1.3. Namangan viloyati Hokimining 2021 yil 1 maydagi 284-sonli qarori.

1.4. Namangan viloyat Hokimining o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyati Qurilish bosh boshqarmasi va buyurtmachi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.5. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021 yil 19 iyuldagi 1714-1714401-24866-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.6. “KOMMUNALTA'MIRLOYIHA” MChJ tomonidan 2021 yilda ishlab chiqilgan kanalining texnik tekshirish bo'yicha xulosa.

1.7. “GEO VALLEY GOLD” MChJ tomonidan 2021 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.

1.8. “Shimoliy Farg'ona magistral kanali” boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan nuqson dalolatnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- “Yangiariq” kanalining PK71+51 dan PK85+52 gacha bo’lgan qismi bosh rejasi, qirqimlar va tugunlar, chizmalar va qaydnomalar, kichik me’moriy inshootlar.
- Tashqi muhandislik tarmoqlari (tashqi elektr tarmoqlari, videokuzatuv tizimi).
- PK-78+10, PK81+41 da piyodalar uchun ko’prik.
- Smeta hujjatlari.
- O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi «O‘zsuvekspertiza» DUKning 2021 yil 22 iyundagi 234-sonli xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

“Yangiariq” kanali Namangan shahrida joylashgan bo’lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to’g’ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo’yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14°s. Me’yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida supes va suglinok (qatlam qalinligi 3,8 metrgacha) va 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 2,0 metrgacha) asos bo’lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo’yicha toifasi – II. Cho’kuvchanligi bo’yicha 1-guruh tuproq turiga to’g’ri keladi. Yer osti suvlari 10 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish reliefi – tekis.

3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. “Yangiariq” kanal.

PK71+51 dan PK85+52 gacha gacha “Yangiariq” kanali filtrlashini kamaytirish va texnik xulosaga asosan kanalning 1,4 km uzunlikdagi qismining texnik holat yaxshilash uchun o’ng va chap mavjud temir-beton qoplamalarni buzish hamda t-12mm.qalinlikda V15 markali yaxlit beton bilan qoplash ko’zda tutilgan. Shuningdek, PK71+51÷76+20, PK77+00÷85+51 o’ng tomonida va PK71+51÷84+00, PK85+00÷85+50 chap tomonida yaxlit quyma temir-beton tirgak devorlar qurish loyihalangan.

2. Obodonlashtirish.

Loyihada 7 sm qalinlikda 11914 m² asfaltobeton qoplama qoplash, beton plitkadan 1864 m² veloyo’lak va 5 sm qalinlikda asfaltobetondan 1864 m² piyodalar uchun yo’laklar qurish nazarda tutilgan. Kanal bo’ylab uzunligi 2603 metr metall to’siqlar o’rnatish loyihalangan. Hududda sayr qiluvchilar uchun 35 dona skameyka va chiqindi qutilari, 11 dona yo’l belgilarini o’rnatish ko’zda tutilgan.

3. Tashqi yoritish tizimi.

Loyihalanayotgan tarmoqda turli kesimdagi AVVG markadagi kabellar ko’zda tutilgan. Kabellar 0,5-0,7 metr chukurlikda yotqiziladi. Tarmoq kuchlanishi-0,4kv. Ko’cha yo’llarini yoritish uchun individual metall tayanchlarga o’rnatilgan “LED” chiroqlar ko’zda tutilgan.

4. Piyodalar uchun ko’prik.

Loyihada PK79+10, PK81+41 da metall konstruksiyalardan piyodalar uchun ko'prik qurish ko'zda tutilgan. Ko'prikning uzunligi – 10 metr, kengligi – 1,5 metr.

5. Videokuzatuv.

Loyihada videokuzatuv tizimi o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Videokuzatuv uchun IP-videokameralar, videokuzatuv tizimining jixozlarini o'rnatish uchun kommunikatsion javoni ko'zda tutilgan. Yozuv va videoma'lumotlar videosever orqali amalga oshiriladi. Tizim KSVPP va optik kabelda loyihalangan. Uzluksiz quvvat bilan ta'minlash va kuchlanishni tartibga solish uchun alohida UPS o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek loyihada "WI-FI" zonalar uchun internet tarmog'i qurish loyihalangan.

3.3. Asosiy ko'rsatkichlari.

- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismining uzunligi - 1,4 km;
- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismida suv o'tkazish qobiliyati - 10 m³/sek.

3.4. Qurilish davomiyligi.

Obodonlashtirish davomiyligi - 12 oy.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Elektr ta'minoti* - Namangan shahar "Markaz" ETKning 26.10.2021 yildagi 0429, 0430, 0431-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib TP-229/250 kVA, TP-31/400 kVA, TP-68/250 kVAning 0,4 kV.li shinalar sistemasi qabul qilingan. Loyihada AISKUE tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja ShFMK boshqarmasi, ShFMK boshqarmasi "Yangiariq" uchastkasi, "Norin-Sirdaryo" ITHB, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi, Namangan shahar qurilish bo'limi va buyurtmachi bilan kelishilgan.
- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 10.08.2021 yildagi 01-19/01-805-sonli xulosasi.
- Tashqi elektr tarmog'i rejasi Namangan shahar "Markaz" elektr ta'minoti korxonasi bilan kelishilgan.
- "Norin-Sirdaryo" ITHB boshlig'i tomonidan tasdiqlangan 2021 yil 5 iyuldagi 11-sonli texnik Kengash bayoni.
- Piyodalar ko'prik rejasi ShFMK boshqarmasi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. "Yangiariq" kanali qizil chizig'i - taqdim etildi.

6.1.2. Loyihaning umumiy tushuntiruv yozuvida obodonlashtirish, piyodalar va velo yo'lakchalari konstruksiyasi xaqida ma'lumot - yoritildi.

6.1.3. Tasdiqlangan topotasvir chizmasi - taqdim etildi.

6.1.4. Piyodalar ko'prik rejasi ShFMK boshqarmasi bilan - kelishildi.

- 6.1.5. Bosh rejada piyodalar va velo yo'laklar umumiy uzunligi – ko'rsatildi.
- 6.1.6. Loyihada piyodalar yo'laklari qalinligi – o'zgartirildi.
- 6.1.7. Pr-1, Pr-2, Pr-3 yo'laklarda yomg'ir suvlari yo'nalishi va nishabligi chizmada – ko'rsatildi.
- 6.1.8. Bosh reja qaydnomasida piyodalar va avtomobil asfalt qoplamasi alohida –ko'rsatildi.
- 6.1.9. Tirgak devorlar uchun beton xajmi – qayta hisoblandi.

“Yangiariq” kanali.

- 6.1.10. “Yangiariq” kanalini oqim yo'nalishini – ko'rsatildi.
- 6.1.11. Ishchi chizmalarda reper – ko'rsatildi.
- 6.1.12. Ko'ndalang qirqim chizmasida vertikal va gorizontal masshtab – yozildi.

Kuchsiz tok.

- 6.1.13. Tarmoq rejasida mavjud hamda loyixaviy aloqa kanalizatsiya tarmog'i – aniq ko'rsatildi.
- 6.1.14. Tarmoq rejasida mavjud hamda loyixaviy tayanchlar – aks ettirildi.
- 6.1.15. NV-2 varoqda PK 75-76 oraliqda kameralar qamrov radiusiga muvofiq kameralar soni – o'zgartirildi.
- 6.1.16. Videokuzatuv loyixasi buyurtmachi bilan – kelishildi.
- 6.1.17. Jixoz va uskunalar ehtiyoji jadvalida kabellarni kanal ko'prigidan olib o'tish uchun po'lat quvur uchun tanlangan diametr – o'zgartirildi.
- 6.1.18. Jixoz va uskunalar ehtiyoji jadvalida ko'rsatilgan UTP KSVP-5e (2087m) kabel uzunligi ishchi chizmaga muvofiq – o'zgartirildi.

Elektr qismi.

- 6.1.19. Kondensator qurilmasini loyihadan – chiqarib tashlandi.
- 6.1.20. Tashqi elektr tarmog'i rejasi Namangan shahar “Markaz” elektr ta'minoti korxonasi bilan – kelishildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan loyiha qiymati **8884769,674 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	7019827,825 ming so'm
Asbob-uskunalar:	223534,846 ming so'm
QQS:	1086504,401 ming so'm
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	554902,602 ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchilligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan shahridagi “Yangiariq” kanalining PK71+51 dan PK85+52 gacha bo’lgan qismini obodonlashtirish” ishchi loyihasi kelgusida ko’rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ekspertlar: A.Xashimov, Sh.Jalilov, S.Madraximov, T.Maxkamov

Bosh mutaxassis: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich